

Yo'lovchilar va kutib oluvchilar diqqatiga

2023 2 Yanvar

2023-yil 2-yanvar kuni Buxoro va Termiz xalqaro aeroportlarining o'zgaruvchan ob-havo sharoiti tufayli (tuman, ko'rish darajasining yomonligi) Uzbekistan Airways bir nechta qatnovlari: HY-023/HY-024 va HY-025/HY-026 Toshkent-Buxoro-Toshkent va HY-065/HY-066 Toshkent-Termiz-Toshkent kechikib amalga oshiriladi.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun yo'lovchilar xavfsizligi yuqori o'rinda turishini eslatib o'tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.